

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MARDONOV BAHODIR BAXRONOVICH

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
экономических наук (DSc)**

**Content of dissertation abstract of doctor of science (DSc)
in economic sciences**

Mardonov Bahodir Bahronovich

Xizmat ko‘rsatish sohasining aholi bandligini oshirish mexanizmlarini
takomillashtirish 3

Мардонов баҳодир Бахронович

Совершенствование механизмов повышения занятости населения в сфере
услуг..... 33

Mardonov Bahodir Bahronovich

Improving mechanisms for increasing employment in the service sector..... 63

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 67

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MARDONOV BAHODIR BAXRONOVICH

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.DSc/Iqt270 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Muxammedov Murod Muxammedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Vahabov Abdurahim Vasiqovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140 100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 9 uy. Tel.: (66)233-38-72, faks: (66) 231-12-53, e-mail: sies_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot –resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:140 100, Samarqand shahri, A.Temur ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99866)231-12-53; e-mail: ilm@sies.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Po‘latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Quvandiқov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., dotsent

I.S.Tuxliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi jahon iqtisodiyotining muhim va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan sohasi sifatida o'zining salmoqli o'rniga ega. Jahonning rivojlangan G'arb mamlakatlarida xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning ustun rivojlangan, birinchi darajali sektoriga aylandi. Uning YAIM hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash, ularning daromadlarini va bo'sh vaqtlarini ko'paytirish va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishdagi roli tobora ortib bormoqda. AQSH yalpi ichki mahsulotining 70 foizi, Fransiyaning 71 foizi, Germaniyaning esa 62,5 foizi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, ushbu mamlakatlarda iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 70 foizidan ortig'i xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatmoqda¹.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion asosda jadal rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini ta'minlashdagi va hayot farovonligini oshirishdagi roli, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish va bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlariga ta'siri, uning inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati, sohada yangi xizmat turlarini yaratish va amaliyotga joriy etish, kabi muhim masalalar keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining innovatsion salohiyatini yuksaltirish, sohaning raqobatbardoshligini oshirish, uni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini takomillashtirish borasida izchil ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi oldidagi vazifalar, sohada yuqori texnologiyalarni joriy etish yo'llari, xizmat ko'rsatish sohasining aholi turmush darajasi va bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, hududlarda uning imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida "Inson qadri uchun" tamoyili asosida halqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiyalash, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni hal etishda mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish va uning aholi bandligini ta'minlashdagi rolini oshirish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PQ-10-son "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida" va 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2023-yil 26-apreldagi PF-61-son

¹https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/Share_of_services/ (murojaat qilingan sana 28.08.2023 yil).

“Yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158- son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida, shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.² Xizmat ko‘rsatish sohasining aholi bandligini oshirishga ta‘sir ko‘rsatuvchi mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha jahonning yetakchi institutlari, oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Harvard university (AQSH), University Warwick (Buyuk Britaniya), University of Strasbourg (Fransiya), Humboldt – universitet zu Berlin (Germaniya), University of Toronto (Kanada), Prague university of economics and business (Chexiya), University of Culcutta (Hindiston), International University in Geneva (Shvesariya), Polytechnic University of Valencia (Ispaniya), University of Applied Sciences Upper Austria (Avstriya), Hanken School of Economics (Finlyandiya), International University of Japan (Yaponiya), Tsinghua University (Xitoy), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iktisodiyot universiteti (Rossiya), Natsionalniy issledovatel’skiy universitet «Visshaya shkola ekonmiki» (NIU VSHE), Novosibirskiy natsionalniy issledovatel’skiy gosudarstvenniy universitet (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan (O‘zbekiston) amalga oshirilmoqda.

Jahonda xizmat ko‘rsatish sohasi va uning aholi bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish mavzusiga oid olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy natijalar olinganligini aniqladik: postindustrial jamiyatda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish yo‘llari, tadqiq etish usullari, sotsiologik so‘rovlarni amalga oshirish va uni tahlil qilish uslublari tavsiya etilgan (Harvard university, AQSH); xizmat ko‘rsatish sohasida aholi bandligini oshirishning maqsadli va manzilli dasturlari ishlab chiqilgan, sohaning aholi bandligini ta‘minlashga, turmush darajasini oshirishga ta‘siri aniqlangan (University Warwick, Buyuk Britaniya); aholi turmush darajasini oshirishda, bo‘sh vaqtini ko‘paytirishda, bandligini ta‘minlashda xizmat ko‘rsatish sohasining ta‘siri baholangan (University of Strasbourg, Fransiya); inson sivilizatsiyasining hozirgi

²<https://www.harvard.edu/>; <https://warwick.ac.uk/>; <http://www.unistra.fr/>; <https://www.hu-berlin.de/>; <https://www.utoronto.ca/>; <https://www.vse.cz/english/>; <https://www.caluniv.ac.in/>; <https://www.iig.ch/en-en/>; <http://bseu.by/english/>; <http://www.upv.es/en/>; <https://www.fh-ooe.at/en/>; <https://www.hanken.fi/ru/>; <https://www.iuj.ac.jp/>; <https://www.tsinghua.edu.cn/en/>; [https://www.rea.ru/ru/org/branches/Pages/tashkent.aspx](https://www.rea.ru/ru/org/branches/Pages/tashkent.aspx;); <https://www.hse.ru/>; <https://www.nsu.ru/n/>; va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

bosqichida xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish zarurati va postindustrial jamiyatni shakllantirishdagi ahamiyati tadqiq etilgan (Humboldt – universitet zu Berlin, Germaniya); xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini ta'minlash imkoniyatlarini aniqlaydigan metodika ishlab chiqilgan (University of Toronto, Kanada); xizmat ko'rsatish sohasida ish haqi bilan bandlik o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirishga oid takliflar berilgan (Prague university of economics and business, Chexiya); xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish va unda aholi bandligini ta'minlashning zamonaviy modeli, boshqaruv mexanizmlaridan samarali foydalanish yo'llari ko'rsatilgan (Prague university of economics and business, Chexiya).

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish orqali "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning keng qamrovli strategiyasini ishlab chiqish (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha muammolari o'rganilgan (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xizmat ko'rsatish sohasi, uning mohiyati, mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'rni, ushbu sohani rivojlantirish muammolari haqida iqtisodchi olimlar tomonidan keng ko'lamda ilmiy-amaliy ishlar olib borilgan. Ushbu masalalar A.Smit, J.B.Sey, A.Marshall, Y.Shumpeter, J.M.Keyns, M.M.Xaykin, Ye.A.Razomasova I.A.Kiseleva, S.O.Iskadjyan I.V.Mixalyov, A.V.Polyanin, V.A.Plotnikov, M.G.Ivanenko, Z.I.Belikina, D.S. Kvasova³ va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining nazariy va metodologik masalalarini respublikamizning iqtisodchi-olimlari – N.Tuxliyev M.M.Muhammedov, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, K.B.Urazov, Q.J.Mirzayev, J.R.Zaynalov, D.X.Asanova, S.N.Tashnazarov⁴ va boshqalar tadqiq etishgan.

³ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Пер. с англ. Майбурда Е.М.. М.: 1993, -152 с.; Сей Ж.Б. Тракт по политической экономии. М.: Дело, 2000.; Маршалл А. Принципы экономической науки / Пер. с англ. -М., 1993. Т.1, -311с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития / Пер. с нем. Автономова В.С. и др. -М., 1982.; Кейнс Ж.М.. Общая теория занятости, процентов и денег. Пер. с англ.-М., 1978.- 576 с.; Хайкин М.М, Логистика в сфере услуг : учебное пособие . – СПб. : Изд-во СПбГУЭФ, 2012. – 112 с.; Разомасова Е.А. Сфера услуг: теория, состояние и развитие: монография / Разомасова Е.А.; НОУ ВПО Центросоюза РФ «Сибирский университет потребительской кооперации» - Новосибирск, 2011.-136 с.; Киселёва И.А., Исканджан С.О. Сфера услуг как основа развития современной экономики // Финансовая аналитика: проблемы и перспективы. 2013. № 46. – С.65-68.; Михалёв И.В., Полянин А.В. Методологические подходы государственного регулирования в сфере услуг. – 2014.; Плотников В.А., Иваненко М.Г. Подходы к анализу понятий «сервис» и «услуг». Журнал. Техничко-технологические проблемы сервиса № 3(33) 2015. С.70.; Беликина З.И. Экономика: учебно-методический комплекс. - М.: Проспект, 2015. -224 с.; Квасова Д.С. Теоретические аспекты секторного структурирования экономики. Вестник Брестского государственного технического университета. 2019. №3 С. 45-50.

⁴ Тўхлиев Н. Холматов Н. Эрматов Ш. Ҳақбердиев Қ. Ўзбекистон иқтисодиёти. Дарслик. Тошкент: «Ўзбекистон» НМИ, 2018. Б.262-272.; Мухаммедов М.М. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. Самарқанд: «Zarafshon», 2017. -300 б.; Пардаев М.Қ. Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари. Монография.-Т.: «Наврўз» 2014.-264 б.; Тухлиев И.С. Туризм: назария ва амалиёт. (Учинчи нашр) – Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021.- 421 бет.; Уразов К.Б. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаси корхоналарида бухгалтерия ҳисобининг долзарб муаммолари // «Сервис» журнали – 2009. №1-107-114 б.; Мирзаев Қ.Ж. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Дарслик – Самарқанд: «Fan bulog'i» нашриёти, 2022. – 252 бет.; Зайналов Ж.Р. Инновацион молиявий хизматлар: муаммо ва ечимлар / - Т.: "Iqtisod-Moliya", 2020. - 368 б.; Асанова Д.Х., ва бошқалар. Агро экотуристский кластер:сущность и возможности его формирования в регионах. Монография - Самарқанд: TURON NASHR, 2020. – 280 с.; Ташназаров С.Н. Особенности проявления

Keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora ortib borayotganligi va iqtisodiyotning yetakchi sektoriga aylanganligi sababli, uning keng imkoniyatlaridan mamlakatning ravnaqi yo'lida foydalanish, aholining turmush farovonligini oshirish yo'llari xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Masalan, S.Ronald, S.Anna, N.David, S.Urayk, M.Bezpartchniy, V.Petrenko, B.Grechanuk, T.Ostapenko, D.Onopriyenko Ya.P.Silini, A.G.Gadjiyeva, V.T.Vodyanikov, A.K.Subayev, O.S.Bulko, Ye.A.Milashevich, Yu.P.Yakubuk, Ye.A.Savchenko, O.F.Gabdraxmanov, N.E.Sobolev⁵ va boshqalarning ishlarini keltirish mumkin. Ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan M.E.Po'latov, M.M.Muhammedov, M.T.Alimova, O.M.Pardayev, B.Sh.Safarov, Sh.O.Quvandiqov, Sh.H.Sattorov⁶ va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning xizmat ko'rsatish sohasiga oid ilmiy izlanishlarini va ularning soha rivojiga qo'shgan salmoqli hissalarini inkor etmagan holda, shuni ta'kidlash lozimki, ularning tadqiqotlarida bozor iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini oshirishga ta'sirini kuchaytirish mexanizmlari bilan bog'liq masalalarga jiddiy e'tibor qaratilmagan. Mustaqillik yillarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, bu borada hozirgi kunda mavjud muammolarni aniqlash, sohaning aholi bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlar bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish

синергетического подхода в развитии сферы услуг. Экономика и инновационные технологии, вып. 5 октябрь 2016 г. С.73-78.

⁵ Ronald S. Anna S. David N. Urike S. Vocational education and training and employment services in malta. Monograph. 2021. European training foundation. 2021. 86 pp.; Bezpartochniy M. Organizational-economic mechanism of management innovative development of economic entities: collective monograhg. Higher school of Social and Economic. Przeworsk:WSSG,2019.-Vol.1.-412 p.; Petrenko V. Grechanyk B. Ostapenko T. Onopriienko D. Innovative development of national economies: collective monograph. – Kharkiv: PC TECHNOLOGY CENTER, 2022. – 158 p.; Силин Я.П. Инновационное развитие сферы услуг в национальной экономике: [монография] [отв. за вып. Н. Ю. Власова]; М-во образования и науки. Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. – Екатеринбург : Изд-во Урал. гос. экон. ун-та, 2016. – 339 с;

Гаджиева А.Г. Воспроизводственная роль сферы услуг в современной экономике: дис. канд. экон. наук. Москва.: 2018.; Водяников В.Т. Субаева А.К. Научно-технический прогресс и производительность труда в аграрном секторе экономики. Монография.- Издательства «Бриг» 2018. -206 с.; Булко О.С., Миласевич Е.А., Якубук Ю.П.Сфера услуг в современной экономике: теория и мировой опыт. Монография. Минск: Беларуская наука, 2022.-238 стр.; Савченко Е.А. Использование технологии блокчейн в сфере туризма. Монография. – Москва, Берлин: Директ - Медиа, 2021.- 90 стр.; Габдрахманов, О. Ф. Организационные модели неформальных экономических сетей сферы услуг. – Москва : Креативная экономика, 2018. – 144 с.; Соболев Н.Э. Оплата труда системе социально-трудовых отношений: стереотипы и российские реалии. Научный доклад.//М.: Институт экономики РАН, 2017.- С.50.

⁶ Пулатов М.Э. Рақамли иқтисодиётда инновацион фаолиятнинг аҳамияти. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish asosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari. / Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2023 yil 20-sentyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2023. Б.4-8.; Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021.-186 б.; Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида). Докторлик дисс. Автореферати-Смарқанд-32 б.; Пардаев О.М. МАҳсулотларни сақлаш ва сотиш хизматлари самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Докторлик дисс. Автореферати - Самарқанд: 2017-336.; Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари. - Т.: Фан ва технология, 2016. - 184 б.; Кувандиқов Ш.О. Оилавий тадбиркорлик:ривожланиш тенденциялари ва истикболлари. Монография. – Тошкент: «Наврўз» нашриёти, 2020.-176 б.; Сатторов Ш.Х. Ўзбекистонда хизмат кўрсатишни ривожлантириш ва самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий асослари. Монография. – Тошкент: «ТошДАУ», 2021. -196 б.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida bayon etilgan muammolarning dolzarbligi mazkur dissertatsiya mavzusining tanlanishiga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining “Iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xizmat ko‘rsatish sohasining aholi bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy bozor iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirishning zaruriligini asoslash, uning postindustrial jamiyatni shakllantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, “xizmat” tushunchasiga muallif talqinidagi ta’rifini ishlab chiqish;

xizmat ko‘rsatish sohasini milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini yangicha yondashuvlar orqali asoslab berish;

innovatsion iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasi vazifalarini asoslab berish hamda uning aholi bandligiga ta’sirini kuchaytirish yo‘llarini ishlab chiqish;

xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlarining mehnati samaradorligini tahlil qilish va baholash;

xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalarini tahlil etish va aholi bandligiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish;

xizmat ko‘rsatish sohasining mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sirini va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini baholash usullarini takomillashtirish;

xizmat ko‘rsatish sohasida aholi bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

xizmat ko‘rsatish sohasida kadrlar salohiyatini baholash usulini takomillashtirish;

xizmat ko‘rsatish sohasida aholini kunlik ish bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida xizmat ko‘rsatish sohasi va ushbu sohada faoliyat olib borayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar olingan.

Tadqiqotning predmeti xizmat ko‘rsatish sohasida aholini ish bilan bandligini ta’minlashga oid iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, statistik va ekonometrik modellashtirish, istiqbolli prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“xizmat” kategoriyasining ta’rifi iste’mol harajatlarini tejash, aholining turmush farovonligini oshirish, uning sohadagi bir nafar oliy ma’lumotli xodimga to’g’ri keladigan aholi soni kabi muhim sifat ko’rsatkichlarini aks ettirish asosida takomillashtirilgan;

Samarqand viloyati aholisini ish bilan ta’minlash tashkiliy mexanizmining amaldagi dasturi ishsizlarni ro’yxatga olish tartibini joriy etish, ularni yaratilgan yangi ish o’rinlariga jalb etish, taqchil kasblarni ro’yxatini shakllantirish va ularga o’rgatish amaliyotini joriy etish kabi yangi elementlarni kiritish asosida takomillashtirilgan;

mahallalarda kambag‘al oilalar sonini kamaytirish imkonini beruvchi va ishsizlar bilan doimiy tarzda ishlaydigan “Ish markazi” ni tashkil etish taklifi ishlab chiqilgan;

xizmat ko’rsatish sohasining hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sirini va yangi ish o’rinlarini yaratish imkoniyatlarini baxolash tizimi aholi jon boshiga to’g’ri keladigan xizmatlar hajmi, o’rtacha umr ko’rish davomiyligi, xizmat ko’rsatish sohasidagi bir nafar xodimga to’g’ri keladigan aholi soni kabi ko’rsatkichlarni integrallash usulini qo’llash asosida takomillashtirilgan;

mahallalarda ishsizlarni kunlik ish bilan ta’minlash tizimining samaradorligini oshirish maqsadida tadbirkorlarning kunlik ishlovchilarga bo’lgan ehtiyojini aniqlash, kunlik ishlar ro’yxatini tuzish va ish kunini hamda ishchilarning kunlik daromadlarini rasmiylashtirishni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«xizmat» tushunchasining mohiyatini ochishda iste’molchi nuqtai nazaridan yondashish zarurligi asoslab berilgan;

xizmat ko’rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi o’rnini baholashda postindustrial jamiyat talablariga muvofiq yangicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan;

innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko’rsatish sohasining mohiyatiga mos yangi vazifalari asoslangan hamda hududlarda ishsizlikni kamaytirish uchun aholi bandligini ta’minlash dasturini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

xizmat ko’rsatish sohasida xodimlar mehnati samaradorligining tahlili amalga oshirilgan hamda uni baholashning yangi usuli ishlab chiqilgan;

xizmat ko’rsatish sohasining aholi bandligini oshirishga ta’sirini kuchaytirishning tashkiliy mexanizm va iqtisodiy mexanizm elementlari aniqlangan va ularni takomillashtirish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

xizmat ko’rsatish sohasining mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta’siri va yangi ish o’rinlarini yaratish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo’llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, ishda keltirilgan xulosa, taklif

va tavsiyalarining amalda sinovdan o'tganligi, muayyan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari mehnat samaradorligini va kadrlar salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlarini ilmiy asoslash hamda xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini oshirish yo'llari bo'yicha qabul qilinayotgan qonun va qonun osti hujjatlari, Prezident qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va sohaga oid boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tayyorlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqishda, oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot yunalishi talabalariga, shuningdek, «Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti», "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" va shu kabi boshqa fanlar buyicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xizmat ko'rsatish sohasining postindustrial jamiyat talablari asosida takomillashgan nazariy asoslari hamda "xizmat" kategoriyasiga xalq manfaatini o'zida mujassamlashtirgan va ularning sifat ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi ta'rifi 60310100- "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)", 60411200- "Menejment(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Jahon iqtisodiyoti va halqaro iqtisodiy munosabatlar" nomli darsligiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Guliston davlat universitet rektorining 2023 yil 28 noyabrdagi 186-sonli buyrug'iga asosan 186-11-raqamli guvohnomasi). Mazkur natijaning amaliyotga joriy qilinishi xizmat ko'rsatishni tashkil etish to'g'risidagi bilimlarning chuqurlashuviga xizmat qilgan;

hududlarda aholi bandligini ta'minlash dasturini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar Samarqand viloyati Jomboy va Narpay tumanlarining 2020-2022 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanildi (Samarqand viloyati Bandlik bosh boshqarmasining 2022 yil 26 apreldagi №131-Q sonli buyrug'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 16 fevraldagi 01/00-03/10-1348-sonli dalolatnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish Jomboy tumanida yangi ish o'rinlari sonining 2,7 martaga, Narpay tumanida esa 2,1 martaga ko'payishiga, ishsizlik darajasining esa Jomboy tumanida 7,2 foizga Narpay tumanida 3,2 foizga qisqarishiga xizmat qilgan;

muallifning "Mahallalarda "Ish markazlari"ni tashkil etish" taklifi 2022 yil – "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" Davlat dasturining I-«Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali halqparvar davlat barpo etish» yo'nalishining 1-maqсадini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi "Taraqqiyot strategiyasi markazi"ning 2023 yil 17

iyuldagi № 1- raqamli dalolatnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish hamda mahallalarda ishsiz fuqarolarni ish bilan ta‘minlash imkonini bergan;

hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat ko‘rsatish sohasining ta‘sirini va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini baholash bo‘yicha uslubiy tavsiya Samarqand viloyatida foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 16 fevraldagi 01/00-03/10-1348-sonli dalolatnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish Samarqand viloyat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat ko‘rsatish sohasining ta‘sirini va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari bo‘yicha “Juda yuqori”, “Yuqori”, “O‘rta”, “Past” va “Juda past” turlarga ajratish imkonini bergan;

mahallalarda “Ish markazi” ni tashkil etish va faoliyatini amalga oshirish taklifi Samarqand viloyati Oqdaryo tumanining “Miyonqol” va “Istiqlol” mahallalarida, Narpay tumanining “Oq oltin” va “Iymon” mahallalarida, Jomboy tumanining “Eski Jomboy” va “Ko‘k gumbaz” mahallalarida joriy etildi (Samarqand viloyati kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasining 2023 yil 29 dekabrda №15-U-sonli buyrug‘iga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 16 fevraldagi 01/00-03/10-1348-sonli dalolatnomasi). Buning natijasida Oqdaryo tumanining “Miyonqol” va “Istiqlol” mahallalarida kambag‘al oilalar soni 2,5 foizga, Narpay tumanining “Oq oltin” va “Iymon” mahallalarida kambag‘al oilalar soni 2,6 foizga, Jomboy tumanining “Eski Jomboy” va “Ko‘k gumbaz” mahallalarida esa 3,1 foizga qisqargan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan 2 ta halqaro va 8 ta respublika ilmiy – amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 224 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari hamda ob‘ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta‘minlash va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi rolini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari**”, deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirishning zarurligi va postindustrial jamiyatni shakllantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, xizmat ko‘rsatish sohasini milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini baholashga doir uslubiy yondashuvlarning mohiyati, shuningdek, innovatsion iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasining vazifalari, xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari mehnati samaradorligini baholash usullari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasi juda qadim zamonlarda, kishilik jamiyati hayotining dastlabki bosqichlarida paydo bo‘lgan va uzoq tarixiy davr mobaynida bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan. Har bir tarixiy davrning mohiyatiga mos tarzda xizmat ko‘rsatish sohasining tarkibi o‘zgardi, kishilik jamiyati hayotidagi o‘rni va mavqei mustahkamlandi, mazmun- mohiyati esa kengayib, takomillashib bordi. Biroq, kishilik jamiyatida xizmat ko‘rsatish sohasining ulkan imkoniyatlari, uning nazariy asoslari, jumladan «agrar jamiyat», «industrial jamiyat» va «postindustrial jamiyat» dagi tutgan alohida o‘rni, inson iqtisodiy faoliyatining asosiy turlaridan biri sifatidagi yetakchilik roli chuqur o‘rganilmagan. Ayni paytda, «agrar jamiyat»da kishilar mahsulot ishlab chiqarishda mutaxassislar maslahatidan, qishloq xo‘jalik ekinlarini ekishda xizmatlarning ma‘lum turlaridan foydalanishgan, shuningdek, bemorlarni davolashda tibbiyot xodimlarining mahorati katta ahamiyat kasb etgan. Iqtisodiy taraqqiyot nuqtai nazaridan, «Industrial jamiyat»da xizmat ko‘rsatish sohasi «agrar jamiyat»ga qaraganda yangi darajaga ko‘tarildi. Bunda insonning aql - zakovati va ijodiy qobiliyati vositasida yangi, yanada murakkabroq, shaklan va mazmunan ancha mukammallashgan xizmat turlari paydo bo‘ldi. Kishilik jamiyatida xizmat ko‘rsatish sohasi bosqichma-bosqich rivojlanib borishi natijasida, jahon iqtisodiyotida hissasi ortib bordi va hozirgi kunda uning asosiy sektoriga aylandi (1-jadval).

1-jadval

2010-2022 yillarda jahon iqtisodiyotining sektorlar bo‘yicha tarkibiy tuzilishining o‘zgarishi⁷

Sektorlar	Jahon yalpi ichki mahsuloti tarkibida alohida sektorlarning ulushi, %			Jahon iqtisodiyotida band aholi tarkibida alohida sektorlarning ulushi, %		
	yillar			yillar		
	2010	2020	2022	2010	2020	2022
Xizmat ko‘rsatish	70,1	63,8	68,7	44,5	40,9	65,5
Sanoat	27,2	30,8	28,2	22,4	21,2	25,2
Qishloq xo‘jaligi	2,7	5,4	3,1	33,1	37,9	9,3
Jami sektorlar bo‘yicha	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

⁷ Manba: www. world bank org. World Bank 2022, ILO 2022b (murojaat qilingan sana 06.11.2023 y.)

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yilda jahon yalpi ichki mahsulotining 63,8 foizi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, ushbu ko'rsatkich 68,7 foizni tashkil etdi. Shuningdek, 2020-yilda jahon bo'yicha iqtisodiy faol aholining 40,9 foizi xizmat ko'rsatish sektorida band bo'lgan. 2022-yilda esa u 65,5 foizni tashkil etdi. Demak, keyingi 2 yil mobaynida ushbu sohada band bo'lganlarning jami iqtisodiyotda bandlar sonidagi ulushi 24,6 foizga oshgan.

Xizmat ko'rsatish sohasi va uning jamiyat taraqqiyoti jarayonida bosib o'tgan yo'lini tadqiq etish natijasida sohaning rivojlanish matritsasini shakllantirdik (2-jadval).

2-jadval

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish matritsasi⁸

№	Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari	Jamiyat taraqqiyotining asosiy sektorlari		
		qishloq xo'jaligi	sanoat	xizmat ko'rsatish sohasi
1	Agrar jamiyat	I	II	III
2	Industrial jamiyat	III	I	II
3	Postindustrial jamiyat	III	II	I

Ushbu matritsa xizmatlar sohasini rivojlanish bosqichlarini belgilab beradi hamda uning nazariyasini takomillashtirishda muhim rol o'ynadi.

Tadqiqotlar jarayonida "xizmat" kategoriyasiga hozirgi kun nuqtai nazaridan qaralmaganligini aniqladik. Postindustrial jamiyatda kishilarning hayot tarzi ko'p jihatdan ko'rsatilgan xizmatlarning hajmi va sifati bilan belgilanadi. Bunday jamiyatda inson va uning aql-zakovati muhim o'rin tutadi. Unda xizmatlar sohasining faoliyat natijalari iste'molchilar talablariga qaratiladi. Shundan kelib chiqib, dissertatsiyada "xizmat" kategoriyasiga xalq manfaatini o'zida mujassamlashtirgan hamda sifat ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi, postindustrial jamiyat talabiga mos keladigan quyidagi ta'rif ishlab chiqildi: "xizmat - umumiy iqtisodiy kategoriya bo'lib, u iste'molchilar ehtiyojini qondirishga va ularning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan mehnat faoliyatining keng tarqalgan turidir".

Dunyoda aholi turmush darajasini tadqiq etgan YUNESKO xodimlari⁹, shuningdek, "International Living» nomli halqaro jurnal mutaxassislarini¹⁰ xizmat ko'rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini baholashda sog'liqni saqlash va infratuzilmalar holati, ta'lim sohasining rivojlanish darajasi, ekologik toza atrof muhitning mavjudligi, kishilarning madaniyati va dam olish uchun bo'sh vaqtlari, kishilarning jamiyat ijtimoiy hayotida ishtiroki, adolat, jamiyatda erkak va ayolning tengligi kabi ko'rsatkichlar va ularga tayanish zarurligini ta'kidlashadi. Bizning nazarimizda ushbu ko'rsatkichlar asosida xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini baholash uchun yetarli emas. Shu sababli ushbu

⁸ Muallif tadqiqotlar asosida tuzildi.

⁹ Корсунская М.П. В Москве готовится форум «Качество жизни» //Стандарты и качество.1999 № 3. С. 30–31.

¹⁰ Рейтинг качества жизни «International Living»–2010 [Электронный ресурс] // Business Forecast. 2010. URL: <http://businessforecast.by/partners/ratings/246/> (murojaat qilingan sana: 26.06.2016).

ko'rsatkichlar ro'yxatini quyidagi ko'rsatkichlarni qo'llash hisobidan boyitish lozim, degan xulosaga kelindi. Bular: aholi bo'sh vaqti, uning umr ko'rish davomiyligi, ta'lim, sog'liqni saqlash va turizm sohalarini rivojlanish darajasi, ekologik vaziyat, xizmatlar iste'molining yalpi iste'moldagi ulushi, xizmat ko'rsatish sohasidagi bir nafar xodimga to'g'ri keladigan aholi soni. Dissertatsiyada ushbu ko'rsatkichlarni qo'llash asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblar va ularning natijalari keltirilgan.

Xizmatlar hajmining uzluksiz tez sur'atlar bilan o'sib borishi sohaga jalb etiladigan iqtisodiy resurslar, jumladan mehnat resurslarini ham mos tarzda oshirib borishni taqozo etadi. Ammo innovatsion iqtisodiyotda qo'shimcha mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojning muayyan qismi sohada band bo'lganlar mehnat unumdorligining o'sishi hisobidan qoplanadi. Dissertatsiyada ushbu xulosani tasdiqlovchi hisob-kitoblar va tegishli jadval keltirilgan. Lekin amalga oshirilgan tadqiqotlar xizmat ko'rsatish sohasida ishlab chiqarish sohasiga nisbatan mehnat unumdorligi ancha pastligini ko'rsatdi (3-jadval).

3-jadval

2000–2022-yillarda O'zbekistonda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligining o'zgarishi¹¹

Yillar	Mehnat unumdorligi			
	ishlab chiqarish sohasida, ming so'm	2000 yilga nisbatan o'sishi, %	xizmat ko'rsatish sohasida, ming so'm	2000 yilga nisbatan o'sishi, %
2000	398,7	1,0	326,2	1,0
2005	1736,3	4,3	1292,1	4,1
2010	5660,3	14,1	5247,7	16,1
2015	13546,4	33,9	12751,9	39,1
2020	57908,5	145,2	33164,1	101,6
2021	68304,9	171,3	41267,7	126,5
2022	79425,6	199,2	51378,6	157,5

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalari xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligini oshirish hisobidan mehnat resurslarini tejashning katta imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi. Nazarimizda, xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligini oshirish muammolariga tizimli yondashish lozim. Buning uchun soha xodimlari mehnati samaradorligini o'zida aks ettiruvchi makroko'rsatkichlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mavjud adabiyotlarda¹² va ilmiy tadqiqot ishlarida¹³ xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnat

¹¹ Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

¹² Пардаев М.Қ. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. 4-нашр.-Т.: «Fan va texnologiyalar» нашриёт-матбаа уйи; 2022. Б.175-180.; Рахимов М. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўқув қўлланма. – Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2013. Б.125-135.

¹³ Ахмеджанов А.Р. Хизмат кўрсатиш корхоналарида иқтисодий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш. 08.00.05 –«Хизмат кўрсатиш тармоқлар иқтисодиёти» ихтисолик бўйича иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Самарқанд, 2021 йил. Б.79-86.

resurslaridan foydalanganlik darajasini, jalb etilgan investitsiyalar miqdori, asosiy fondlar bilan qurollanganlik darajasi, ish haqi miqdori kabi ko'rsatkichlari bilan tahlil qilingan. Milliy hisoblar tizimiga kiruvchi ushbu ko'rsatkichlar aniq bir vaqt ichida xizmatlar hajmi o'zgarishi dinamikasini taqqoslashda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ushbu ko'rsatkichlar xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari o'z imkoniyatlaridan qay darajada samarali foydalanayotganligini aniqlash imkonini bermaydi. Shu sababli biz xizmat ko'rsatish sohasida xodimlar mehnatini baholashga yaroqli mukammal ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga urinib ko'rdik. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tadqiqotlar jarayonida xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari mehnatini baholashda yangi uslubiy yondashuv ishlab chiqildi. Uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$MS = \frac{Mu}{Q+R} \quad (1)$$


Bunda, Ms- mehnat samaradorligi; Mu – xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligi; Q – xizmat ko'rsatish sohasida o'rtacha ish haqi; R- xizmatlar hajmining oshishiga va sifatining yaxshilanishiga (malaka oshirishi, tajriba orttirishi, qayta tayyorlash, xodimning ishdan bo'sh vaqtida madaniy xordiq chiqarishi, sport bilan shug'ullanishi, soha mutaxassislari bilan suhbatlashishi, turli uchrashuvlarda ishtirok etishi va boshqalar) qilingan harajatlar.

Biz taklif etgan ushbu formulaning muhim jihati shundaki, bunda xodimning mehnat natijasi va sarflari aks ettiriladi. Soha xodimlarning kayfiyati, sog'lig'i, ijtimoiy rag'batlanganlik darajasi, belgilangan maqsad va marralarga erishishda muhim rol o'ynaydi. Insondagi malaka, bilim, ko'nikma kabi sifatlarni shakllantirish va keyinchalik ishlab chiqarish jarayonida ulardan foydalanib, yuqori natijalarga erishish tabiiyki, ma'lum miqdorda sarf-harajatlarni amalga oshiradi. Ushbu sarf-harajatlarni xodimning mehnat samaradorligini hisoblashda inobatga olish lozim, deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarini mehnat unumdorligini oshirishga rag'batlantiradi.

Dissertatsiya ishining «**Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish mexanizmlarini aholi bandligiga ta'siri boyicha nazariy yondashuvlar**», deb nomlangan ikkinchi bobida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va bozor mexanizmlarining mazmun mohiyati va ularning elementlari boyicha ratkibiy tuzilishi hamda sohada aholi bandligini ta'minlashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan.

Jamiyat rivojlanib, iqtisodiy jarayonlar takomillashib borgan sayin, iqtisodiyotni makro va mikro darajada tartibga solish va samarali boshqarish jarayonlari ham tobora murakkablashib boradi. Nazariy tadqiqotlar xizmat ko'rsatish sohasi uch sektorli iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida, iqtisodiy munosabatlarning muhim bo'g'inini tashkil etishini va bu jihatdan u umumiy iqtisodiy qonunlarga bo'ysunishi kerak, degan xulosaga kelindi. Ishda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmi sohaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanishi zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bunda xizmat ko'rsatish sohasidagi xodimlar eng avvalo insonlarning xohish-istaklari, kishilarning ongi, psixologiyasi, ijtimoiy aloqalari kabi nozik

xususiyatlariga duch keladi. Bu, o'z navbatida, xizmat ko'rsatish sohasidagi xodim mehnati sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularni boshqarishga yuqori talab qo'yadi. Masalan, soha xodimlarini boshqarish usullari, funksiyalari, jarayonlari takomillashadi. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmi boshqaruv usullarining mukammaligi va to'g'ri shakllanganligi bilan uzviy bog'liq. Boshqaruv usullari va funksiyalari xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining rivojlanishi hamda jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan o'zgarib turadi. Shu sababli, xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishida tashkiliy elementlari ham muhim ahamiyatga ega. Shulardan kelib chiqqan holda xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirishning tashkiliy mexanizmini quyidagi tarzda shakllantirish taklif etiladi (1-rasm).



1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmi¹⁴.

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

Tashkiliy mexanizm bir necha huquqiy elementlardan tarkib topgan. Qonunlar, davlat dasturlari, farmonlar, qarorlar, nizomlar, buyruq va boshqalar. Bizningcha, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmi samarali natija berishi uchun uning tarkibida «javobgarlik», «hisob berish» va «baholash» kabi elementlar bo'lishi lozim.

Ushbu elementlar soha xodimlarini belgilangan vazifalarni to'liq bajarishida mas'uliyatini oshiradi. Shuningdek, ijro mexanizmi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantiruvchi iqtisodiy sub'ektlarning mahalliy hokimiyat organlari hamda mahalla fuqarolari (iste'molchilar) oldida javobgarligini belgilaydi.

Biz taklif etgan ushbu mexanizmining afzalligi shundaki, xizmat ko'rsatish sohasi mas'ullarining javobgarligini oshiradi hamda barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'radi.

Jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, jumladan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, tabiiy iqlimning o'zgarishi, koronavirus infeksiyasining keng tarqalishi (pandemiya) oqibatida mamlakatda va butun dunyo miqyosida yuzaga kelgan favqulodda og'ir vaziyat xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy mexanizmini barqaror amal qilishiga imkon bermadi. Jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan bu kabi keskin o'zgarishlar xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada xizmat ko'rsatish sohasi, uning ulkan salohiyatidan mamlakat ravnaqi yo'lida foydalanish imkoniyati kamaydi. Chunki xizmat ko'rsatish sohasini tez sur'atlar bilan rivojlantirishning, uni taraqqiyotning yuqori darajalariga ko'tarishning, mamlakat yoki jahondagi salbiy o'zgarishlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini imkon qadar kamaytirish va sohadagi vaziyatni tiklashning muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini chuqur tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy tadqiqotlar shundan dalolat berdiki, keyingi yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlarning soni tobora ortib bormoqda. Biroq, ularning aksariyatida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi tadqiq etilgan. Xizmat ko'rsatish sohasining xususiyatlari, turlari, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishdagi keng imkoniyatlari va boshqa jihatlari ko'p elementlardan tarkib topgan murakkab iqtisodiy mexanizmni talab etadi.

Tadqiqotlar xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning amaldagi iqtisodiy mexanizmlarida sohada yangi ish o'rinlarini yaratish, mavjud resurslardan unumli foydalanish, kelajakda istiqbolini belgilash imkonini bermaslik kabi kamchiliklarini ko'rsatdi. Bizning nazarimizda, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini shunday takomillashtirish kerakki, u sohaning doimiy, uzluksiz, barqaror ravishda rivojlanib borishini va yangi ish o'rinlarining yaratilishini ta'minlab bersin. Shularni inobatga olib, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldik:

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari¹⁵


№	Iqtisodiy mexanizmlar	Tavsifi
1	Aholi bandligini rag'batlantirish	-yangi xizmat turlari rivojlanadi va sifati yaxshilanadi; -sohada sifatli kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi oshadi; - sohada kadrlar qo'nimsizligi kamayadi;
2	Raqobatni ta'minlash	-xizmatlar bozorida halol raqobat ta'minlanadi va muvozanatga erishadi; - xizmatlar narxi barqarorlashadi; -iqtisodiy resurslardan unumli foydalaniladi; -sohada yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.
3	Soliq	-xizmat ko'rsatuvchilarning manfaatdorlik darajasi oshadi; -moddiy texnik bazasini yangilash imkoniyati kengayadi; -sohada aholini norasmiy ish bilan ta'minlash darajasi qisqaradi; - soha xodimlarining norasmiy daromadlari rasmiylashtiriladi;
4	Investitsiya	- sohada aylanma mablag'lar hajmi oshadi; - eksport tovarlari tarkibida xizmatlar hajmi ko'payadi;
5	Aholiga xizmatlarni kredit orqali ko'rsatish (sohaning xizmat turlarini kreditlash)	- aholini xizmat bilan qamrab olish darajasi oshadi; - aholining xizmatlarga bo'lgan talabi ortadi.
6	Tadbirkorlikni rivojlantirish	- xizmat ko'rsatish sohasining barcha faoliyat turlari rivojlanadi; - barcha hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishiga erishiladi; - sohada yangi ish o'rinlari yaratiladi.
7	Ayrim toifadagi kishilarga byudjet mablag'lari hisobidan xizmat ko'rsatish	- imkoniyati cheklangan kishilar ham turli xizmatlardan foydalanishi ta'minlanadi.

Biz taklif etgan ushbu iqtisodiy mexanizmning afzalligi shundaki, bunda sog'liqni saqlash, dam olish (turizm) kabi xizmat turlariga kreditdan foydalanish nazarda tutilgan, shuningdek, imkoniyati cheklangan kishilarga ham byudjet mablag'lari hisobidan barcha xizmat turlarini ko'rsatish inobatga olingan. Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun sohada bozor mexanizmlarini rivojlantirish lozimligini ko'rsatdi. Dissertatsiyada xizmat ko'rsatish sohasi salohiyatidan to'la foydalanish uchun bozor mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan. Jumladan, joylarda maishiy uskunalarni ta'mirlash

¹⁵ Muallif ishlanmasi

ustoxonalari, kimyoviy tozalash shaxobchalari, buxgalteriya, reklama, pullik tibbiy xizmat kabi tadbirkorlik sub'ektlari kamligi, ular o'rtasida halol raqobatning ta'minlanmaganligi, narxlarning beqarorligi ko'rsatib o'tilgan. Xizmat ko'rsatish sohasining yaxshi rivojlanmagan tarmoqlari hali juda ko'p, ularning hisobidan sohani rivojlantirish imkoniyatlari benihoya keng. Nazarimizda, xizmat ko'rsatish sohasini respublika hududlarida jadal rivojlantirish hisobidan sohaning YAIM ulushini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratishga qo'shayotgan hissasini oshirish lozim. Bunday keng ko'lamlil ulkan vazifalarni bajarish xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqot ishlarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari ko'rsatilgan. Masalan, S.N.Makarova¹⁶, A.A.Poroxovskiy¹⁷, N.K.Raximovlar¹⁸ xizmat ko'rsatish sohasida bozor mexanizmini takomillashtirish uchun davlat xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy sub'ektlarni qo'llab-quvvatlash, iste'molchilarni esa rag'batlantirish, monopoliyaga qarshi qonun ishlab chiqish, investitsiya kiritish, keng ko'lamlil fiskal siyosatni yuritish, malakali kadrlarni tayyorlash orqali ko'maklashish lozim, deb hisoblaydilar. Lekin, bizning nazarimizda, xizmat ko'rsatish sohasida bozor mexanizmlarini takomillashtirish uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvi yetarli emas. Garchand, davlat xizmat narxlarini tartibga solishda iqtisodiy usullarni qo'llasada, bozorda raqobatni ta'minlash, inflyatsiyani jilovlash kabi muammolarni bartaraf eta olmaydi. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyot bo'lganligi uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvi katta ijobiy samara bermaydi. Iqtisodchi olimlarning fikrlarini tanqidiy tahlil qilish asosida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini quyidagicha takomillashtirish taklif etildi (2-rasm).



2-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlari¹⁹.

¹⁶ Makarova S.N. Razvitiye mexanizma upravleniya rinkom infokommunikatsionnix uslug. 08.00.05-Ekonomika i upravleniye narodnim xozyaystvom (ekonomika, organizatsiya i upravleniye predpriyatiyami, otraslyami, kompleksami- sfera slug). Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. Sank Peterburg 2021. S.40.

¹⁷ Poroxovskiy A. A. Rinochniy mexanizm amerikanskoy ekonomiki: rol sifrovizatsii // SSHA & Kanada: ekonomika – politika – kultura. – 2020. – Vipusk № 5 C. 24-38.


¹⁸ Raximov N.K. Razvitiye mexanizma gosudarstvennoy podderjki proizvoditeley v sfere uslug (na materialax Respubliki Tadjikistan). Spetsialnost 08.00.05 - Ekonomika i upravleniye narodnim xozyaystvom (ekonomika, organizatsiya i upravleniye predpriyatiyami, otraslyami i kompleksami - sfera uslug). Avtoreferat na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. Dushanbe 2022. S.21.

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

Biz taklif etayotgan mexanizmning mohiyati shundan iboratki, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmi ikki yo'nalishda takomillashadi. Birinchisi, davlat o'z sektorini tashkil qilib, milliy iqtisodiyotning bir bo'g'ini sifatida tovar va xizmatlarni yaratib, bozor munosabatlarida ishtirok etadi. Ikkinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlari o'z maqsadlaridan kelib chiqib, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish orqali milliy iqtisodiyotni tartiblashda ishtirok etadi. Shuningdek, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar yordamida bozor mexanizmini tartibga solinishi sohaning taraqqiyot darajasini tezlashtiradi.

Xizmat ko'rsatish sohasida bozor mexanizmlarini takomillashtirish sohada mehnatni tashkil etishning yangi shakllari paydo bo'lishini ta'minlaydi, kreativlik, innovatsiyalar va ijodiy izlanishning rivojlanishini rag'batlantiradi. Bizningcha, bir martalik ish, vaqtinchalik ish, ikkinchi bandlik, qisqartirilgan ish kuni, kunlik ish shular jumlasiga kiradi. Kuzatuvlar har bir viloyatda kunlik ishlovchilar qariyb ming kishini tashkil etishini ko'rsatdi. Bizning nazarimizda, hududlarda mavjud ulkan mehnat salohiyatidan mamlakat ravnaqi yo'lida foydalanish uchun ularni birlashtiradigan (ish beruvchi va ishchi) tizimni ishlab chiqishga zarurat bor. Ushbu maqsadda biz mahallalarda "Kunlik ish markazi"ni tashkil etishni taklif qildik va uni amaliyotga joriy qilish mexanizmini ishlab chiqdik. Bizningcha, bir kunlik ish ham milliy mahsulotni yaratishda va qo'shimcha qiymatni shakllantirishda ishtirok etadi. Chunki, u bir tomondan aholi bandligini ta'minlash, uning muayyan qismiga mehnat natijalariga muvofiq ish haqi daromadlarini topish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, mamlakat milliy daromadini shakllantirishning manbalaridan biri sifatida faol ishtirok etadi. Kunlik ish markazining mohiyatini ochish maqsadida «kunlik yollanma ishchi», «kunlik ish beruvchi» hamda «kunlik ish» tushunchalarini kiritdik. Ishda ushbu tushunchalarga ham ta'riflar ishlab chiqildi.

Biz taklif qilgan kunlik ish markazining ishlash mexanizmi quyidagicha tavsiflanadi (3-rasm):



3-rasm. Kunlik ish markazining ishlash mexanizmi²⁰.

²⁰ Muallif ishlanmasi.

Tadqiqot ishida kunlik ish beruvchi va kunlik yollanma ishchilarning huquq va majburiyatlari ishlab chiqildi. Huquq va majburiyatlar kunlik ish beruvchi va kunlik yollanma ishchilar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda kunlik ish markazi ishsizlarga, shuningdek, ba'zan ishsiz qolgan fuqarolarga, doimiy ish joyiga ega bo'lmagan kishilarga, talabalarga kunlik daromad topish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko'rsatish sohasining holati, rivojlanish tendensiyalari va uning aholi bandligiga ta'sirini kompleks baholash”** deb nomlangan uchinchi bobida xizmat ko'rsatish sohasining holati va rivojlanish tendensiyalari, sohada band xodimlarining mehnat samaradorligi tahlil qilingan, sohada aholi bandligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari baholangan.

Jahon amaliyotida uzoq yillar davomida xizmatlarga oid ko'p sonli chuqur nazariy tadqiqotlar o'tkazilgan va ularning natijasida turli ilmiy qarashlar va fikr mulohazalar shakllangan. Lekin kelajakda postindustrial jamiyatni shakllantirishda xizmat ko'rsatish sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, uning milliy iqtisodiyotdagi mavqeini asosiy sektor sifatida mustahkamlash, aholi bandligini va uning real daromadlarini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylantirish ushbu sohaning bugungi holatini hamda rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Biroq, chop etilgan ilmiy adabiyotlarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi bir necha ko'rsatkichlar tizimi, jumladan, “YAIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi, iqtisodiyotda bandlar umumiy sonida xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar ulushi, aholi iste'moli harajatlari tarkibida xizmatlarning ulushi, eksport umumiy hajmida xizmatlar eksportining ulushi, sohada band bo'lgan ishchi xodimlarning mehnati bilan yaratilgan qiymatni o'zida aks ettiradigan sof xizmatlar” kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tahlil qilish tavsiya etilgan.²¹ Ammo davlat makroiqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan xizmat ko'rsatish sohasini yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatkichlar orqali baholash bugungi kun talablariga javob bermaydi. Chunki industrial jamiyatda va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning undan oldingi bosqichlarida, insoniyat taraqqiyotining asosini moddiy ishlab chiqarish tashkil etgan va shu sababli ilmiy izlanishlarda asosiy e'tibor aynan shu sohani rivojlantirishning nazariy hamda amaliy muammolarini yechishga qaratilgan edi. Postindustrial jamiyatda esa, xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning ustun rivojlangan asosiy sektori sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, xizmatlar sohasi yuqorida ta'kidlab o'tilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan tashqari, aholi manfaatlarini nazarda tutuvchi, ularning vaqtini tejash, bo'sh vaqtini ko'paytirish,

²¹ To'xliyev N. Xolmatov N. Ermamatov Sh. Haqberdiyev Q. O'zbekiston iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent: «O'zbekiston» NMI, 2018. B.262-272; Muhammedov M.M. Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi va daromadlari. Monografiya. «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», Toshkent.: 2021. B.69; Muhammedov M.M. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya. Samarqand: Zarafshon, 2017. B.38. B. 69. Arxipova, Ye. B., Borodkina, O. B., Ivanova, M. M., Starshinova, A. V., Chikova, Ye. V., Chulkov, S. S., Borodkina, O. I. (Red.), Starshinova, A. V. (Red.), Osmuk, L. A., & Klassen. Aktualnie problemi sifrovizatsii sotsialnix uslug: monografiya. OOO "Skifiya-print".M., 2021. -232 str. Ishaqova S.A. Xizmatlar sohasi va aholi daromadlari. Monografiya.-Samarqand: «Samarqand davlat chet tillar instituti» nashriyoti. 2021.-B. 82 bet.

aholini xizmat turlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, sifatli xizmatlar ko'rsatish, aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatini aniqlaydigan ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha ham tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tadqiqot davomida inson manfaatini ifoda etuvchi quyidagi ko'rsatkichlar ishlab chiqildi.

Birinchi ko'rsatkich - bu aholi rasmiy ishdan tashqari vaqtining qancha qismi bo'sh vaqtni tashkil etishiga qarab, xizmat ko'rsatish sohasini milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini baholash (5-jadval).

Mazkur jadval ma'lumotlari O'zbekiston ayollarining rasmiy ishdan tashqari vaqti 8,87 soatni, bir kunlik bo'sh vaqti esa atigi 2,78 soatni tashkil etishini ko'rsatmoqda. Rasmiy ishdan tashqari, ya'ni bo'sh vaqtning asosiy qismi 3 soati uy yumushlarini bajarishga, 0,98 soati esa oila a'zolariga qarashga sarflanadi. Iqtisodiyoti rivojlangan G'arb mamlakatlari ayollarining rasmiy ishdan tashqari vaqti 12-13 soatni tashkil etadi, shundan 6-7 soati bo'sh vaqt ya'ni, madaniy xordiq chiqarishga sarflanadi.

5-jadval

Aholining rasmiy bandlikdan tashqari faoliyat turlari bo'yicha vaqtlarining sarfi, soatda²²

№	Aholining rasmiy ishdan tashqari bajaradigan ish turlari	O'zbekistonda		Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar	
		aholi tarkibi			
		erkak	ayol	erkak	ayol
		soat			
1	Uy yumushlari (supurish, tozalash, ovqat pishirish, kir yuvish, dazmollash va shu kabilar)	0,65	3	-	-
2	Oila a'zolariga qarash (ovqatlantirish, cho'miltirish, kiyintirish, suhbatlashish, dori vositalarini taqdim etish va boshqalar)	0,37	0,98	-	-
3	O'ziga qarash (soch turmaklarini to'g'rilash, pardozlash, sport bilan shug'ullanish)	1,52	1,65	3,42	3,65
4	Muloqot (oila a'zolari, qo'shnilar, do'stlar va boshqalar bilan suhbatlashish)	0,45	0,35	1,35	1,65
5	Xordiq chiqarish (musiqa tinglash, kitob o'qish, kino, teatrga tashrif buyurish, toza havoda sayr qilish, uchrashuvga chiqish va hokazo)	2,68	2,78	3,75	6,46
6	Boshqalar	0,1	0,11	0,3	0,45
Jami soatlar		5,77	8,87	8,77	12,21

²²Bandlikning samarali siyosati:ayollarni mehnat qilish imkoniyatlarini oshirish. Taxliliy ma'ruza. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy ximoya qilish vazirligi. Toshkent, 2012 yil. 7 bet. Muallif tadqiqotlari asosida xorij mamlakatlar aholisining rasmiy bandlikdan tashqari faoliyat turlari bo'yicha vaqtlarning sarfi aniqlangan.

O‘zbekistonda ayollarning rasmiy ishdan tashqari vaqti iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ayollarining rasmiy ishdan tashqari vaqtidan 3,34 soatga, madaniy xordiq chiqarish vaqti ham 3,68 soatga kam. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasining ba’zi turlari, jumladan, uy yumushlarini bajarish, yoshi ulug‘ (bemor) keksalarga qarash, g‘amxo‘rlik qilish, bola parvarishlash (enagalik xizmatlari) kabi xizmat turlari rivojlanmagan. Shu sababli, O‘zbekiston aholisining rasmiy ishdan tashqari vaqtining asosiy qismi (bizning hisobimiz bo‘yicha 70-80 foizi) uy yumushlarini bajarish, oila a‘zolarining xizmatlarini qilishga sarflanadi, atigi 20-30 foizi esa turli xizmatlardan foydalanishga ajratiladi.

Ikkinchi ko‘rsatkich - aholi iste‘mol harajatlari tarkibida uy-hovli atrof muhitni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, turizm xizmatlarining ulushiga qarab baholash.

6-jadval

2021 yilda aholi iste‘mol harajatlari tarkibi, (foizda)²³

No	Harajat turlari	O‘zbekistonda	Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda *
1	Xizmat ko‘rsatish sohasi	20,0	64,9
	Shu jumladan:		
1.1.	Kommunal xizmatlari	6,9	10,1
1.2.	Ta‘lim xizmatlari	2,5	15,2
1.3.	Sog‘liqni saqlash xizmatlari	1,4	14,3
1.4.	Aloqa va transport xizmatlari	5,9	10,2
1.5.	Turizm va boshqa xizmatlari	3,3	15,1
2	Oziq-ovqat mahsulotlari	68,2	17,2
	Shu jumladan:		
2.1.	Oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga	52,3	12,6
2.2.	Atrof muhitni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish	15,4	3,1
2.3.	Alkagol ichimliklari	0,5	1,5
3	Nooziq-ovqat mahsulotlari	11,8	17,9
	Shu jumladan:		
3.1.	Kiyim kechak va oyoq kiyimlariga	5,7	7,1
3.2.	Maishiy texnika va elektronika	2,8	9,2
3.3.	Boshqa nooziq-ovqat mahsulotlariga	3,3	1,6
	Jami	100,0	100,0

*Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

6-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston aholi iste‘moli harajatlari tarkibida atrof muhitni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish harajatlari umumiy harajatlarning 15,4 foizini, sog‘liqni saqlash xizmatiga ajratgan harajatlari

²³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy sayti./ Kirish yo‘li: www.stat.uz

1,5 foizini, ta'lim xizmatlaridagi harajatlar 2,5 foizini tashkil etadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholi iste'mol harajatlari tarkibida sog'liqni saqlash, ta'lim xizmatlarining ulushi 15,1 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Tahlillar O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining sog'liqni saqlash, ta'lim tarmoqlarini rivojlantirish va unda aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatlari kengligini ko'rsatdi.

Uchinchi ko'rsatkich - xizmat ko'rsatish sohasidagi bir nafar xodimga to'g'ri keladigan aholi sonini ifodalaydigan ko'rsatkichlar. Ushbu ko'rsatkichlar xizmat ko'rsatish sohasini hali ro'yobga chiqmagan imkoniyatlarini aniqlashda, samaradorlik va sifatini baholashda muhim rol o'ynaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi ko'plab omillarning kuchli ta'siri ostida amalga oshadi. Tadqiqot jarayonida rivojlangan mamlakatlarda aholi bandligini oshirishda xizmat ko'rsatish sohasining ta'sirini muqobil matematik modeli yaratilib, uni atroflicha tahlil qilish orqali mazkur soha jarayonlariga o'zgartirishlar kiritilib borish tajribasi borligini aniqladik. Biz ham masalaga metodolik jihatdan to'g'ri yondashish va maqsadga erishish uchun xizmat ko'rsatish sohasiga taalluqli va bandlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni alohida ajratdik. Bunday omillarga YAIM hajmi, xizmat ko'rsatish sohasiga kiritilgan investitsiyalar, ish haqi, xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnat unumdorligi, inflyatsiya darajasi, xizmat ko'rsatish sohasining o'sish sur'atlari, xizmat ko'rsatish sohasining asosiy vositalari va aylanma mablag'larini kiritdik. Tanlangan omillarning natijaviy belgiga ta'siri juft korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash yo'li bilan aniqlandi. Korrelyatsion tahlil usuli bizga bir-birini takrorlaydigan va natijaviy belgi bilan kuchsizroq bog'lanishda bo'lgan omillarni tenglamaga kiritmaslik imkonini berdi. So'ngra ko'p omilli regressiya tenglamasini tuzdik. Amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari 7-jadvalda keltirilgan. 7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, natijaviy belgining oshishiga 1, 2 va 3 omillarning ta'siri kuchli. Aynan ushbu omillar sohani barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

7-jadval

Xizmat ko'rsatish sohasidagi aholi bandligiga ta'sir etadigan omillarning korrelyatsion bog'liqligi

№	Omillar	Korrelyatsiya koeffitsiyenti
1	YAIM hajmi	0,707
2	xizmat ko'rsatish sohasiga kiritilgan investitsiya	0,721
3	xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnat unumdorligi	0,683
4	xizmat ko'rsatish sohasida o'rtacha ish haqi	0,651
5	inflyatsiya darajasi	0,465
6	xizmatlar hajmining o'sish sur'atlari	0,051
7	xizmat ko'rsatish sohasining asosiy vositalari	0,545
8	xizmat ko'rsatish sohasining aylanma mablag'lari	0,567

O'zbekistonda, qisqa davr mobaynida, xizmat ko'rsatish sohasida sifat va miqdor o'zgarishlar sodir bo'ldi. Masalan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning mamlakat yalpi ichki

mahsulotidagi ulushi 33,8 foizdan (1990 yil)²⁴ 41,5 foizga (2022 yil)²⁵ oshdi, aholi iste'mol harajatlari tarkibida xizmatlarning ulushi mos ravishda 11,2 foizdan 13,7 foizga²⁶ ko'tarildi. Lekin ushbu tahlil natijalarini rivojlangan mamlakatlardagi ma'lumotlar bilan taqqoslaganda, xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini taminlashda va turmush darajasini oshirishda hali ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar bor, degan xulosaga kelindi.

8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda aholi jon boshiga yalpi xizmatlar hajmi atigi 603 AQSH dollarini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, AQShda 47,8 ming AQSH dollariga, Yaponiyada 22,3 ming AQSH dollariga teng. Tahllilar O'zbekistondagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi xizmatlar hajmini iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda, ulardan 56 martaga kamligini ko'rsatdi.

8-jadval

2022-yilda dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasida yaratilgan xizmatlar xajmi²⁷

№	Mamlakatlar nomi	Xizmat ko'rsatish sohasi		Doimiy aholi soni, mln kishi	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi, ming AQSH dol.
		hajmi, mlrd AQSH dol	YAIM tarkibidagi ulushi, %		
1	O'zbekiston	21,5	35,9	35,6	0,603
2	AQSH	15864,1	78,1	333,3	47,8
3	Xitoy	8619,7	52,3	1412,3	6,1
4	Rossiya Federatsiyasi	793,1	54,1	143,5	5,5
5	Germaniya	2268,4	62,7	84,1	26,9
6	Fransiya	1858,4	70,3	67,9	27,3
7	Italiya	1254,8	64,8	58,8	21,3
8	Yaponiya	2806,5	63,3	125,1	22,3
9	Qozog'iston	16,5	52,6	19,6	5,9
10	Tojikiston	2,8	35,2	9,9	0,282

Shuni ham ta'kidlab o'tish o'rinliki, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasidagi band aholi sonining iqtisodiyotda band aholi sonidagi ulushi 50,0 foizdan oshganligiga qaramasdan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi Rossiya Federatsiyasidagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmidan qariyb 10 martaga kam. Bizning nazarimizda, buning asosiy sababi

²⁴ Ўзбекистон Республикаси ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари. Статистик тўплам.-Т.: Ўзбекистон, 2011.-49 б.

²⁵ O'zbekiston raqamlarda 2021-2022. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi to'plami. T.: 2023 y. B.39.

²⁶ O'zbekiston raqamlarda 2021-2022. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi to'plami. T.: 2023 y. B.73.

²⁷https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/share_of_services/ (murojaat qilingan sana 23.08.2023 yil); <https://regnum.ru/news/2972959.html> (murojaat qilingan sana 04.09.2022 yil)

sohadagi xodimlar mehnatidan mamlakat taraqqiyoti yo'lida samarali foydalanilmaganligi. Odatda, har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotini yuksaltirishda hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishda mehnat resurslaridan unumli foydalanish taraqqiyot va yuksalishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Iqtisodiyoti ilg'or rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, tabiiy resurslarning mavjudligi yoki umuman yo'qligi iqtisodiy o'sish uchun katta to'siq bo'la olmaydi. Tabiiy resurslarning miqdori va sifati mamlakat milliy iqtisodiyotining salohiyatini, imkoniyatlarini belgilaydi. Lekin mavjud salohiyat va imkoniyatlarning ro'yobga chiqishi, ya'ni ularning mamlakatda ishlab chiqariladigan yalpi ichki mahsulot hajmi o'sishining, tovarlar va xizmatlarning mo'l-ko'lligini ta'minlashning real natijalariga aylanishi faqatgina ishchi kuchining bevosita ishtirokida, uning ishlab chiqarish jarayoniga katta ta'siri ostida amalga oshadi. Ishda soha xodimlarining mehnat samaradorligi hisoblab chiqildi (9-jadval). Amalga oshirilgan hisob-kitoblar O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida xodimlarning mehnat samaradorligi biz taklif etgan me'yordan ko'p, ba'zilar esa 0,7 va 0,3 punktga kam ekanligini ko'rsatdi.

9-jadval

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari xodimlarining mehnat samaradorligining dinamikasi (so'mda)²⁸


Xizmat ko'rsatish tarmoqlari	Yillar			2022 yilning 2020 yilga nisbatan o'zgarishi (+;-)
	2020	2021	2022	
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	0,6	0,8	0,9	+0,3
Yashash va ovkatlanish xizmatlari	0,4	0,6	0,7	+0,3
Tashish va saqlash	1,0	1,1	1,1	+0,1
Axborot va aloqa	2,3	2,3	2,1	+0,2
Moliya va sug'urta faoliyati	4,3	4,5	4,7	+0,4
Ta'lim	0,7	0,9	0,9	+0,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0,9	0,8	0,9	X
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	0,8	0,7	0,8	X
Boshqa turdagi xizmat ko'rsatish	0,1	0,1	0,1	X

Masalan, 2022 yilda xizmat ko'rsatish sohasining ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash tarmog'idagi xodimlarining mehnat samaradorligi, belgilangan me'yordan 0,1 punktga, tashish va saqlash tarmog'i xodimlari mehnatining samaradorlik ko'rsatkichi ham belgilangan me'yordan 0,4 punkt ko'p. Ushbu holat tarmoqdagi xodimlar salohiyatidan, asosiy vositalardan va boshqa resurslardan unumli foydalanilayotganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasining hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi

baholashning integrallash usuli hamda baholash shkalasi ishlab chiqildi. Shunga muvofiq Samarqand viloyati hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat ko'rsatish sohasining ta'siri va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari baholandi va guruhlarga ajratildi(4-rasm).



4-rasm. Samarqand viloyat tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat ko'rsatish sohasining ta'siri, foizda

1-guruh. Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha imkoniyatlari juda yuqori, deb baholangan hududlar (tumanlar) – Urgut, Samarqand va Oqdaryo tumanlari.

2-guruh. Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha imkoniyatlari yuqori, deb baholangan hududlar (tumanlar) – Pastdarg'om, Payariq va Jomboy tumanlari.

3-guruh. Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha imkoniyatlari o'rta, deb baholangan hududlar- Bulung'ur, Ishtixon va Tayloq tumanlari.

4-guruh. Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha imkoniyatlari past, deb baholangan hududlar – Paxtachi, Narpay, Kattaqo'rg'on tumanlari.

5-guruh Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha imkoniyatlari juda past, deb baholangan hududlar – Kattaqo'rg'on shahar, Nurobod va Qo'shrabot tumanlari.

Tahlil natijalaridan kelgusi yillar uchun ortda qolayotgan tumanlarda xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini kuchaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, investitsion dasturlarni shakllantirish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilishda foydalanildi.

Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari”**, deb nomlangan to'rtinchi bobida xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini ta'minlashdagi rolini oshirish istiqbollari hisoblab chiqilgan, sohada aholi bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari aniqlangan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyati baholangan, kunlik ish

bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida aholi bandligini ta'minlashga doir vazifalarni bajarish xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, uning imkoniyatlaridan kengroq foydalanish yo'llarini izlab topish va hayotga tadbiiq etish lozim. Shulardan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini oshirishning istiqboldagi imkoniyatlari qaysi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida ro'yobga chiqarilishi mumkinligini aniqladik. O'tkazilgan tadqiqotlar ushbu maqsadga YAIM hajmi, xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi hamda soha xodimlarining mehnat unumdorligini oshirish orqali erishish mumkinligini ko'rsatdi. Dissertatsiyada ushbu omillarning aholi bandligini ta'minlashdagi hamda yalpi xizmatlar yaratishdagi rolini tahlil qilib, istiqboldagi holatini aniqlash uchun prognoz funksiyalari ishlab chiqildi. Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini oshirish uchun uchta muhim omillar ta'sir etganligi sababli, quyidagi ko'p omilli regressiya tenglamasini tuzdik:

$$Y=6354,3+0,00411x_1+0,00189 x_2 -0,0643 x_3 \quad (2)$$

Ko'p omilli regressiya tenglamasini t-Styudent kriteriyasi yordamida uning ishonchliligini tekshirdik. Hisob-kitoblar quyidagi natijalarni berdi, ya'ni ishonchlik darajasi $p=0,95$ bo'lganda t-Styudentning jadval qiymati $t_j=2,35$ bo'ladi. Bizda $t_f=40,125$ tashkil etdi. Demak, $t_f > t_j$ ($40,125 > 2,35$). Bu esa hosil qilingan tenglamamiz natijaviy belgi bilan omillar o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri ifodalanganligidan dalolat beradi. Tadqiqot ishida regressiya koeffitsiyentining iqtisodiy mohiyati hisoblab chiqildi. Bunga ko'ra, YAIM hajmining 1 foizga ko'payishi sohada band aholi sonini 0,04 foizga oshiradi. Xizmatlar sohasiga kiritilgan investitsiya hajmining 1 foizga ortishi natijasida sohada band aholi soni qariyb 0,02 foizga ko'payadi. Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligining 1 foizga oshishi sohada band aholining 0,06 foizga kamayishiga olib keladi. Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarning istiqboldagi natijalarini regressiya tenglamasiga qo'llagan holda, xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligining 2025-2030-yillardagi ko'rsatkichlari prognoz qilindi:



5-rasm. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida band aholi sonining istiqboldagi o'zgarishi, ming kishi²⁹

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2010-2021 yillardagi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, 2030 yilda xizmat ko'rsatish sohasida 7571,4 ming kishi band bo'lishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2021 yilga qaraganda 776,9 ming kishiga ortiq bo'ladi yoki 1,1 martaga ko'payadi.

Hisob-kitoblar 2030 yilda xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi barqaror sur'atlar bilan o'sib, uning iqtisodiyotdagi band aholi sonidagi ulushi 50-55 foizni tashkil etishi mumkinligini ko'rsatdi.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati istiqboli uning nafaqat xizmat ko'rsatish sohasida foydalanilmagan imkoniyatlari yoki yer osti va yer usti boyliklari bilan, balki birinchi galda, keng dunyo qarashli, intellektual salohiyati yuqori, o'z sohasining bilimdoni bo'lgan kadrlari bilan belgilanadi. Dissertatsiyada iqtisodchi olimlarning xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatini baholash usullari o'rganildi, ularning bu boradagi yondashuvlari tahlil qilindi, kamchiliklari aniqlandi hamda muallif tomonidan ularga nisbatan munosabat bildirildi. Shuningdek, ishda xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatini beshta ko'rsatkichlardan foydalanib, baholash usuli ishlab chiqilgan. Biz taklif etgan usulning afzallik jihati shundaki, ushbu usul xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari salohiyatini aniqroq baholash, shuningdek, uni ro'yobga chiqarishda to'sqinlik qilayotgan muammolarni ham aniqlash imkonini beradi.

Xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlari jamlanib, 1 va 5 oraliqda baholandi. Agar natija 1 va 2 oraliqda bo'lsa, xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar past salohiyatli, 2 va 3 oraliqda bo'lsa, kadrlar o'rta salohiyatli, 3 va 4 oraliqda bo'lsa kadrlar yuqori salohiyatli, 4 va 5 oraliqda bo'lsa, kadrlar juda yuqori salohiyatli, deb hisoblanadi³⁰. Xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyati yuqorida aytib o'tilgan besh mezon bo'yicha hisoblandi va natijalari quyidagi jadvalda keltirildi (10-jadval):

10-jadval

Xizmat ko'rsatish sohasining ba'zi tarmoqlaridagi kadrlar salohiyati

№	Xizmat ko'rsatish tarmoqlari	Jami ball oraliqlari				Salohiyat bahosi
		[1;2]	[2;3]	[3;4]	[4;5]	
1	Tashish va saqlash	-	2,50	-	-	O'rta salohiyatli
2	Yashash va ovqatlanish	1,75	-	-	-	Past salohiyatli
3	Ta'lim	-	-	3,75	-	Yuqori salohiyatli
4	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish	-	-	3,75	-	Yuqori salohiyatli
5	Axborot va aloqa	-	2,50	-	-	O'rta salohiyatli

Tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmoqlaridagi kadrlarning salohiyati beshta ko'rsatkich bo'yicha baholanganda, u 2,50 ballni tashkil etdi. Yashash va ovqatlanish tarmog'idagi kadrlar salohiyati 1,75 ballni, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tarmoqlaridagi kadrlar salohiyati esa 3,75 ballni tashkil etdi. 10-jadvalda xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatining

³⁰ Muallif tadqiqotlari asosida hosoblangan.

baholanish shartlari keltirilgan. Shunga muvofiq, tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmoqlaridagi kadrlar salohiyati 2,50 ballni tashkil etganligi uchun ularni o'rta salohiyatli, yashash va ovqatlanish tarmog'idagi kadrlar salohiyati 1,75 ballni tashkil etganligi uchun ularni esa salohiyatli, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tarmoqlaridagi kadrlar salohiyati 3,75 ballni tashkil etganligi uchun ularning kadrlarini yuqori salohiyatli, deb baholandi. Shunday qilib, o'tkazilgan tahlil natijalari O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi kadrlarini yetarli darajada salohiyatli ekanligini ko'rsatdi.

XULOSA

Xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida qo'yidagi umumiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini oshirishga ta'sirini kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirish xususida turli xil ilmiy qarashlar shakllanganligini ko'rsatdi.

2. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarida ayrim kamchiliklarning borligi aniqlandi.

3. Xizmat ko'rsatish sohasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi rivojlanish matritsasi shakllantirildi va har bir bosqichda insonlarning hayot faoliyatida, ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

4. "xizmat" kategoriyasiga iste'molchi manfaatini o'zida mujassamlashtiradigan va ularning sifat ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi quyidagi ta'rif ishlab chiqildi: "xizmat - umumiy iqtisodiy kategoriya bo'lib, u iste'molchilar ehtiyojini qondirishga va ularning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan mehnat faoliyatining keng tarqalgan turidir".

5. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari samarali natija berishi uchun «javobgarlik», «hisob berish», «baholash» kabi elementlardan tarkib topishi ilmiy jihatdan asoslandi.

6. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish tavsiya etildi: sohada aholi bandligini rag'batlantirish; sohada bozor mexanizmlari amal qilinishini ta'minlash; soliqning rag'batlantirish funksiyasini kengaytirish; sohani investitsiyalash; aholiga xizmatlarni kredit orqali ko'rsatish; sohada tadbirkorlikni rivojlantirish; ayrim toifadagi kishilarga byudjet mablag'lari hisobidan xizmat ko'rsatish.

7. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini davlat hamda nodavlat notijorat tashkilotlari yordamida takomillashtirish ijobiy natijalarni berishi ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda sohani rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish usuli ishlab chiqildi.

8. Xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari mehnat samaradorligini baholashda mavjud muammolar aniqlandi Mehnat samaradorligi tarkibidagi sarflar alohida ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etildi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasi xodimlar mehnati samaradorligini baholashning yangi usuli ishlab chiqildi.

9. Hududlarda xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini baholashning quyidagi usullari taklif etildi: hududlar taraqqiyotiga xizmat ko'rsatish sohasining ta'sirini va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini baholashning integral usuli; investitsion loyihalar tarkibiga qarab baholash usuli; xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtisodiy sub'ektlarning jami faoliyat yuritayotgan iqtisodiy sub'ektlar sonidagi ulushiga qarab baholash usuli; tashqi iqtisodiy faoliyatda mintaqani (hududlar) ishtirokini xizmat ko'rsatish sohasi orqali baholash usuli; hududlarda kunlik ish bilan band bo'lganlar sonining o'zini-o'zi ish bilan band bo'lganlar sonidagi ulushiga qarab baholash usuli.

10. O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish uchun, uning yillik o'sish sur'atlarini hozirgi erishilgan 5,4 foizdan pasaytirmagan holda, aksincha uni 6-7 foizga yetkazish va uni uzoq yillar davom ettirish lozimligi asoslab berildi.

11. Nazariy tadqiqotlar iqtisodiy adabiyotlarda aholini kunlik ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, postindustrial jamiyatda uning zarurligi va afzalliklari to'g'risida aniq yondashuv va fikr-mulohazalar bayon qilinmaganligi, shuningdek "kunlik ish" tushunchasining mohiyati yetarlicha ochib berilmaganligi, bu borada tadqiqotchilar orasida yakdillik yo'qligini va aksariyat tadqiqotchilar e'tirof etgan ilmiy qarashlar mavjud emasligini ko'rsatdi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlarini o'rganish aholi bandligini ta'minlashning ba'zi yangi, fanga ma'lum bo'lmagan shakllarini aniqlash imkonini berdi.

12. Xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini ta'minlashdagi ta'sirini kuchaytirish va kelgusidagi istiqbolini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ushbu soha 2030 yilga borib, unda band bo'lgan aholi soni 7471,4 ming kishiga yetishi mumkinligi prognoz qilindi.

13. Tahlil natijalari xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnat unumdorligi bandlik kategoriyasiga teskari bog'liqlikda ekanligini ko'rsatdi hamda mehnat unumdorligi va bandlik kategoriyalari o'rtasidagi o'zaro bog'lanish muammosining yechimi xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish kerak, degan to'xtamga kelindi.

14. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatni yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish... " kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlar salohiyatiga bog'liq ekanligi isbotlab berildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
№PhD.03/28.02.2022.I.18.01В ПРИ САМАРКАНДСКОМ ИНСТИТУТЕ
ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА**

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

МАРДОНОВ БАХОДИР БАХРОНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПОВЫШЕНИЯ
ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В СФЕРЕ УСЛУГ**

08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)**

Самарканд – 2024

Тема докторской диссертации зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2020.4.DSc/Iqt270.

Диссертация выполнена в Самаркандском институте экономики и сервиса.

Диссертация на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещена на веб-странице Научного совета (www.sies.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	Мухаммедов Мурод Мухаммедович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Пардаев Мамаюнус Каршибоевич доктор экономических наук, профессор
	Вахабов Абдурахим Вахидович доктор экономических наук, профессор
	Кодиров Абдурашид Маджидович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова

Защита диссертации состоится на заседании разового научного совета на основе научного совета по присвоению научных степеней № PhD.03/28.02.2022.I.18.01 самаркандского института экономики и сервиса «_____» _____ 2024 года в _____. (Адрес: 140100, город Самарканд, ул. Амира Темура, 9. Тел.: (66)233-38-72, факс: (66) 231-12-53, e-mail: sies_info@edu.uz)

С диссертацией можно познакомиться в информационно-ресурсном центре самаркандского института экономики и сервиса (зарегистрировано под №_____). (Адрес: 140 100, город Самарканд, ул. Амира Темура, 9. Тел.: (66) 231-12-53, e-mail: ilm@sies.uz).

Автореферат диссертации распространен «_____» _____ 2024 г.
(протокол реестра № _____ от «_____» _____ 2024 г.).

М.Е.Пулатов

Председатель Разового научного совета на основе Научного совета по присвоению научных степеней, д.э.н., профессор

Ш.О. Кувандиков

Секретарь Разового научного совета на основе Научного совета по присвоению научных степеней, д.э.н., доцент

И. С. Тухлиев

Председатель научного семинара Разового научного совета на основе научного совета по присвоению научных степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. На современном этапе развития общества сфера услуг занимает значимое место как важная и быстро развивающаяся отрасль мировой экономики. В развитых западных странах эта сфера стала первостепенной отраслью национальной экономики. Все более возрастает роль этой отрасли в увеличении объемов ВВП, создании новых рабочих мест, обеспечении занятости населения, увеличении доходов граждан и выполнении других важных социально-экономических задач. 70% валового внутреннего продукта США, 71% Франции и 62,5% Германии приходится на сферу услуг. Также более 70 процентов занятого в экономике этих стран населения работают именно в данном секторе экономики.³¹

В мире проводятся научные исследования, направленные на решение актуальных проблем стремительного развития сферы услуг на инновационной основе. В частности, исследуются роль данной отрасли в обеспечении занятости и повышении благосостояния населения, ее влияние на процессы ускорения экономического роста и формирования экономики знаний, развитие человеческого капитала, создание и реализация новых видов услуг в этом секторе. Наряду с этим всесторонне изучаются вопросы повышения инновационного потенциала сферы услуг, повышения конкурентоспособности отрасли, совершенствования государственной политики в этой области. На современном этапе развития общества все большее значение приобретают научные исследования в области внедрения высоких технологий в отрасль, совершенствования механизмов повышения уровня жизни и занятости населения за счет развития сферы услуг.

В процессе строительства Нового Узбекистана особое значение также уделяется вопросам опережающего развития сферы услуг, обеспечения занятости населения и сокращения бедности за счет эффективного использования возможностей данного сектора экономики в регионах. В Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы, основанной на принципе «Ради достоинства человека», определены важные задачи по дальнейшему повышению благосостояния нашего народа, трансформации отраслей экономики, безусловного обеспечения прав и интересов личности. При решении этих задач в нашей стране актуальным является углубление научных исследований в области приоритетного развития сферы услуг и повышения ее роли в обеспечении занятости населения.

